LUQMON BO‘RIXONNING “TITRAYOTGAN TOG‘ ” ROMANIDA MILLIY KOLORIT IFODASI

Xamidova Dilorom Olimjonovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728912

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Titrayotgan tog‘” romanida milliy kolorit ifodasi tahlil qilinadi. Asarda o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analari, mentaliteti, milliy qadriyatlari, tabiat manzaralari bilan uyg‘unlikda ikki viloyat hududini bir-biri bilan bog‘lovchi temiryo‘l qurilishi jarayoni badiiy tasvir vositasida yoritilgan. Roman qahramonlari xarakteri, muhit tasviri va til xususiyatlari orqali milliy ruh ifodalangan. Tadqiqot natijasida asarda milliy kolorit yozuvchining asosiy estetik vositalaridan biri ekani aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy kolorit, roman, badiiy tasvir, urf-odat, milliy ruh, obraz, an’ana.*

Аннотация. *В данной статье анализируется выражение национального колорита в романе Лукмана Борихана «Дрожащая гора». Произведение изображает процесс строительства железной дороги, соединяющей территории двух регионов, в гармонии с обычаями, традициями, менталитетом, национальными ценностями и природными ландшафтами узбекского народа посредством художественной образности. Национальный дух выражается через характеры героев романа, описание окружающей среды и особенности языка. В результате исследования установлено, что национальный колорит в произведении является одним из главных эстетических инструментов писателя.*

Ключевые слова: *национальный колорит, роман, художественный образ, обычаи, национальный дух, образ, традиция.*

Abstract. *This article analyzes the expression of national character in Lukman Borikhan's novel "The Trembling Mountain." The work depicts the construction of a railway connecting two regions, harmonizing with the customs, traditions, mentality, national values, and natural landscapes of the Uzbek people through artistic imagery. The national spirit is expressed through the novel's characters, descriptions of the environment, and linguistic features. The study establishes that national character in the work is one of the writer's main aesthetic tools.*

Keywords: *national character, novel, artistic image, customs, national spirit, image, tradition.*

Kirish. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida milliylik ruhini aks ettirish muhim badiiy tamoyillardan biridir. Ayniqsa, tarixiy va ijtimoiy voqelikni yorituvchi romanlarda milliy kolorit xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma’naviy olamini namoyon etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Luqmon Bo‘rixonning “Titrayotgan tog‘” romani ham shu jihatdan e’tiborga loyiq asarlar sirasiga kiradi. Asarda inson va tabiat, jamiyat va shaxs munosabatlari bilan bir qatorda milliy ruh kuchli ifodalangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Romanda milliy koloritning ifodasini tahlil qilishdan avval, kolorit so‘zining ma’nosiga e’tibor qaratish kerak. “Kolorit” so‘zi lotincha “kolor”, italyancha “kolorito” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “rang,

bo‘yoq, manzara, jilo” kabi ma’nolarni anglatadi. “Kolorit” deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro munosibligi tushunilsa, badiiy tarjimada bu iborani biror narsaning o‘ziga xos belgi va xususiyatlari majmuyi deyish mumkin. Chunki, voqelikni ta’sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo‘lgan “Kolorit” asarning g‘oyasi, mazmuni, davri, uslubi hamda muallifning shaxsiga bo‘g‘liq bo‘ladi [3.667]. Bir so‘z bilan aytganda “Kolorit” voqelikni real va ifodali tasvirlasa ranglarning o‘zaro mutanosibligi, shuningdek kolorit biror bir narsaning o‘ziga xos tomonlar majmuyini anglatadi [4.963]. Mashhur yozuvchi O‘tkir Hoshimov: “Milliy kolorit „Ekzotika” emas, xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, fe’l-atvori, qismatini ko‘rsatib turuvchi vositadir”, [1.268] - deb ta’kidlagan. Roman voqealari Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining “Qipchoq”, “Juvonbel”, “Supa”, “Chashma” ovullarida – Qashqadaryoning G‘uzor tumani va Surxondaryo viloyati, shuningdek, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadi. Unda yozuvchi Qipchoq ovulidagi yangicha hayot ta’sirida sodda xalq ongining uyg‘onishi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, yo‘lsozlarning turmushi haqida hikoya qiladi. Adabiyotshunos I.Yoqubov asarda ko‘tarilgan muammoni quyidagicha tasniflaydi: “Titrayotgan tog‘” romanini ifodalagan markaziy muammolariga ko‘ra shartli ravishda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikkita yo‘nalishga ajratib o‘rganish mumkin. Bu tarmoqlar ma’rifatli el taqdiri masalasida umumlashadi, yaxlitlik kasb etadi.

1. Ijtimoiy-siyosiy markaz.
2. Ma’naviy-axloqiy markaz” [5.246].

Muhokama va natijalar. Ushbu tadqiqotimizda, asosan, ikkinchi tarmoqning tahliliga e’tiborimizni qaratamiz. Roman voqealari, asosan, tog‘li hududlarda kechishi sababli tog‘ manzaralari, qishloq tabiati, yaylovlar va qir-adirlar o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Tog‘ obrazi o‘zbek xalqining bardoshi, matonati va sabr-toqatining ramzi sifatida gavdalanadi. Yozuvchi tabiat tasvirlari orqali milliy dunyoqarashni aks ettiradi. Tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik sharqona tafakkurga xos holda yoritiladi. Jumladan, temir yo‘l quruvchilarning ham mahalliy aholining diqqat markazida bo‘lgan Supa degan joyning ta’rifi va bu yerning tarixi keng tasvirlangan: “ – E-e, kattakon bovalar, sizlar bilmaysizlar-da. Supa o‘z oti bilan supa. Bir zamonlar u yerda hazrati Bashir ota dam olib o‘tgan ekanlar, bizning urug‘dan bir cho‘pon xizmatini qilgan. Avliyoota tila tilagingni deganlar. Cho‘pon shu yerlarning haqiga bir duo qiling deb so‘ragan. Xullas, hazrati Bashir otaning nazari tushgan joy – Supa. Qishlog‘imizda hamma Supada uy qurib, shu yoqqa ko‘chib ketishni orzu qiladi” [2.189]. Zargarov va Amirqul o‘rtasidagi ziddiyat ham aynan shu joy tufayli vujudga keladi. Fikrimizcha, yozuvchi Supaning qadimiyligini

va mahalliy aholi uchun qadrli joy ekanini asarda tasvirlasa-da, bu qadriyatga zid ravishda vaqt va mablag‘ni tejash maqsadida temir yo‘lning bir qismini o‘tkazmoqchi bo‘lishadi. Ammo bu hayot mantig‘iga mos emas. Mantiqan olib qaralganda, osuda va qadimiy maskanning o‘z holicha saqlab qolinishi milliy an’analar asralishiga sababchi bo‘ladi.

Pirimqul bilan Amirqul o‘rtasidagi adovat “Alpomish” dostonidagi Boybo‘ri bilan Boysari o‘rtasidagi kelishmovchilikni eslatadi. Ularning ichki kechinmalarini esa tabiat lavhalari bilan uyg‘unlikda namoyon etadi: “Ko‘k to‘la yulduzlar haligina kechgan janjaldan hurkib ketishganday, g‘uj-g‘uj bo‘lib, allanechuk javdirab-javdirab boqishar edi” [2.61].

Asar qahramonlari o‘zbek xalqiga xos andisha, hayo, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etgan. Ularning muomala madaniyati, oilaga munosabati, mehr-oqibati milliy xarakter belgilarini ochib beradi. Roman personajlari individual xarakter bo‘lishi bilan birga, xalq vakillari sifatida ham namoyon bo‘ladi. Amirqul bobosidan qolgan cho‘kichni ishlata olmasa ham, juda qadrlaydi. Necha marta sotib olmoqchi bo‘lgan odamlarga ham sotmasdan ko‘z qorachig‘idek asraydi: “Holbuki so‘rab kelgan ustalar ko‘p bo‘ldi, hatto ba’zilari sotib olish ilinjida savdolashib ko‘rishdi. Baribir befoyda, Amirqul hech narsaga ko‘nmadi. Uning nazarida cho‘kich ketsa, xonadonidan baraka ariydigandek edi” [2.16]. Musofirlikda ko‘p savob ishlar qilib yurgan azamatlar ko‘ngli tusaganda ehtirom bilan chorlangan Nurboy baxshi “O‘v bolalarim-e!” – deya kuylaydi. Bahodir Alpomish haqidagi yolqinli so‘zlarini xalqining diliga joylar ekan, ibtidoni “Elimiz bahodir o‘g‘lonlarining ham badani, ham yuragi polvon bo‘lganligidan boshlaydi [2.34].

Asar qahramonlaridan biri Amirqul ko‘p yillar farzandsizlikdan qiynaladi. Yozuvchi tush motividan foydalanib, Amirqulning farzandli bo‘lishi uchun najot yo‘lini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ko‘rgan tushi asosida Amirqul va uning rafiqasi, amallarni bajarishadi:

“Amirqul o‘sha tong tiniqib, qushday yengil tortib uyg‘ondi. Yangi yil arafasida sinfdoshlar gashtagiga so‘yish uchun boqib yurgan bo‘rdoqisining yoniga bordi. Ha, oppoq libosli chol yetaklab kelgan qo‘chqor xuddi shu! Amirqulning vujudiga quvonch o‘rmaladi. Chorshanba kuni er-u xotin bo‘rdoqini yetaklab hazrati Langarotaga borishdi. Birvarakayiga butun aziz avliyolardan shafoat tilab zor-zor yig‘lashdi, farzand so‘rashdi. Hoynahoy, zurriyot qayg‘usida so‘nggi bor to‘kkan ko‘z yoshlari shu bo‘ldi. Oradan to‘qqiz oy-u to‘qqiz kun o‘tib Zarbibi qo‘chqordek o‘g‘il tug‘di” [2;17-18]. Romanda ko‘p bora “Alpomish” dostoniga murojaat qilingan. Nurboy baxshi doston kuylash uchun kelganda ham Qo‘ng‘irot elining ular istiqomat qilayotgan joyda yashab o‘tganligini hamda hozirgi avlodning tomirlari

Qo‘ng‘irotlar bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Doston Bo‘ybo‘ri bilan Boysarining farzand ilinjida Shohimardon pirning dargohiga borganligi bilan boshlanadi. Amirqul bilan rafiqasining farzandli bo‘lish uchun amalga oshirgan xayr-ehsonlari tasviri bilan qiyoslash mumkin. Har ikkala holatda milliy urf-odat va qadriyatlar namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi xalqona iboralar, maqollar, shevaga xos unsurlar, milliy muomala shakllaridan unumli foydalangan. Shu sababli roman tili tabiiy va ta’sirchan chiqqan. Til vositasida qahramonlarning yashash muhiti va milliy mansubligi yaqqol seziladi. Yozuvchining o‘xshatish va qiyoslari g‘oyatda milliyligi bilan ajralib turadi. Jumladan: temir yo‘l – “tarang tortilgan tasma”ga, bahaybat buldozerlar – so‘na (o‘rdak)ka, beli o‘pirilib ketgan tepaliklar – “bukchayib, bujmayib shafqat so‘rayotgan pahlavon”ga, yurish qismi siyqalanib bo‘shashgan “KamAZ” – ko‘pkarida lat yegan ot”ga, ish faoliyatini yo‘qotayotgan ekskavator – “bezgak tutib, qaltirab, muskullari bo‘shashayotgan polvon”ga, mashinalar qatnovidan mayinlashib qolgan tuproq – “tannozlarning upa-eligi”ga, egilib qurilgan mahobatli ko‘prik – “Alpomishning yoyi”ga, sap-sariq tepaliklar – “zardobi silqigan suzma xaltalari”ga, og‘ir texnika ezg‘ilagan mayda tuproq – “tegirmon uni”ga, ust-boshini chang-g‘ubor qoplagan ishchi – “bosh oyoq un ukpariga belangan tegirmonchi”ga, cho‘michini saranglatayotgan ekskavator – qo‘sh o‘rkachli nortuyaga ortilgan beso‘naqay sandiqqa”, o‘pirilgan qiyalik – “ulkan tort bo‘lagi”ga o‘xshatiladi [2.187].

“Titrayotgan tog‘” romanida milliy kolorit shunchaki bezak vositasi emas, balki g‘oyaviy-badiiy mazmunni ochuvchi muhim unsurdir. U orqali yozuvchi:

- xalqning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadi;
- tarixiy va ijtimoiy muhitni jonlantiradi;
- qahramonlar ruhiyatini chuqur ochadi;
- asarning ishonarliligini oshiradi.

Xulosa. Luqmon Bo‘rixonning “Titrayotgan tog‘” romanida milliy kolorit badiiy mahorat bilan yoritilgan. Asarda tabiat manzaralari, xalq urf-odatlari, qahramonlar xarakteri va til xususiyatlari orqali o‘zbek xalqining milliy qiyofasi gavdalantiriladi. Yozuvchi milliylikni umuminsoniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga chuqur estetik ta’sir ko‘rsatadi. Asarda zamonaviylik va milliylik uyg‘un holda mujassam. Yangi bir davrda rivojlanishdan ancha ortda qolgan hududda avvallari faqat orzu bo‘lgan temir yo‘lning qurilishi, mana shu qurilish jarayonida mahalliy aholining dunyoqarashi, turmush tarzi, qiziqishlari o‘zgaradi. Bir necha asrlik tarixini unutmagan holda asar qahramonlari zamonga moslashishga intilishadi. “Alpomish” dostonidan parchalar keltirishi hamda ba’zi bir qahramonlarning dostondagi voqealarga monand ravishda harakat qilishi o‘ziga xos milliy koloritni

namoyon qiladi. Buning asosiy sababi “Alpomish” dostoni voqealari, qo‘ng‘irot eli tarixi bevosita asarda tasvirlangan joy bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent, “Sharq”, 2013, 268-b.
2. Luqmon Bo‘rixon. Titrayotgan tog‘. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 272 b.
3. Mamatova M. Badiiy tarjimada milliy kolorit va realiyalar//Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454 Volume 2. Issue 5. May, 2022. p. 666-669.
4. Suvanov H. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir //“Science and Education” Scientific Journal / www.openscience.uz June 2023. Volume 4. Issue 6. p. 962-965
5. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. – Toshkent, 2011. – 475 b.